

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

GADOYEV DADAXON XAYRULLOYEVICH

**BUXORO MASJIDLARI TARIXI
(1920-1991)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

The contents of the abstract of doctor of philosophy (PhD)'s dissertation on historial sciences

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

Buxoro masjidlari tarixi (1920-1991)..... 5

Гадоев Дадахон Хайруллоевич

История мечетей Бухары (1920-1991).....26

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

History of Bukhara mosques (1920-1991).....52

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

GADOYEV DADAXON XAYRULLOYEVICH

**BUXORO MASJIDLARI TARIXI
(1920-1991)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Tar 608 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov Qahramon Kenjaevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Sayfulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rahimov Komiljon Rahmatovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino, 4-qavat, majlislar zali). Tel.: +998762231311; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

T.R. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

O.A. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

H.E. Xolmuminov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan faol globallashtirish sharoitida tolerantlik va dinlararo bog'rikenglikni yo'lga qo'yish, insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish va takomillashtirish, madaniy meros obyektlarini kelgusi avlodga yetkazish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Xususan, islom olamining muqaddas qadamjolari sanalgan masjidlar o'zining salobati, go'zal me'moriy yechimlari bilangina emas, balki inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadigan muqaddas maskan sanaladi. Shu boisdan ham BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM – 2030) dasturida ibodat maskanlarini, shu jumladan, masjidlarni nafaqat diniy qadamjo, balki insoniyat sivilizatsiyasining me'moriy va tarixiy durdonalari sifatida saqlab qolish borasida alohida ko'rsatma qabul qilingan bo'lib, bu borada samarali ishlar olib borilmoqda¹.

Dunyoning qator rivojlangan davlatlaridagi ko'plab ilmiy tadqiqot maskanlarida masjidlarning qurilishi tarixi va ijtimoiy hayotdagi o'rnini, ularning me'moriy xususiyatlarini o'rganish, masjidlarni ta'mirlash va ularni madaniy meros obyektlari sifatida saqlab qolish yuzasidan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida islom olamida masjidlarning bunyod etilish tarixi, ayniqsa, masjidlarning odamlar o'rtasida va jamiyatda yaxshilik, mehr-oqibat, savobli amallar kabi ezgu qadriyatlarni targ'ib qiluvchi maskan sifatidagi ijtimoiy ahamiyatini o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda.

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorining qurilishi, Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi asosida diniy qadriyatlarning jamiyatda tinchlik va bog'rikenglikning mustahkamlanishidagi o'rnini belgilash yuzasidan xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan ziyorat turizmini rivojlantirish yuzasidan belgilangan vazifalar doirasida masjidlar tarixini o'rganish, xorijiy sayohatchilar uchun ilmiy asoslangan ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli, 2021-yil 9-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6165-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi F-5598-sonli Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida”gi 120-sonli, 2019-yil 30-martdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 265-sonli qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

¹ World Heritage List //URL: <https://sdg-tracer.org/cities#11.4>

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha masjidlar mavzusi bo‘yicha O‘zbekistonda juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur mavzuda yozilgan tarixiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularni metodologik yondashuv va ilmiy xususiyatlariga ko‘ra, quyidagi uch asosiy guruhga ajratish mumkin: 1) Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar; 2) mustaqillik davrida yozilgan asarlar; 3) xorijiy tadqiqotchilarning maqola va kitoblari.

Birinchi guruh adabiyotlarini Sovet davrida faqat mafkuraviy maqsadga qaratilgan, Sovet va partiya organlari tomonidan buyurtma asnosida yozilgan ommabop risola, kitoblar va boshqa asarlar tashkil etadi. Lekin, Oktabr to‘ntarishidan keyingi o‘n yillikda yozilgan ilmiy asar, risola va maqolalarda masjidlarga munosabat bir qadar xolisona yoritilgan. Mirza Salimbek ², Muhammad Ali Baljuvoni ³ kabi tarixchilar, V.Bartold ⁴, Buxoro jadid taraqqiyparvarlari Abdurauf Fitrat⁵, Sadriddin Ayniy⁶ va boshqalarning asarlarida ham Buxoro masjidleri haqida ba’zi ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, Muhammad Ali Baljuvoni ham o‘z asarida Buxoro shahridagi ko‘plab me’moriy obidalar qatorida mang‘itlar davri masjid va madrasalari nomlarini keltiradi. Shuningdek, amir Muzaffarning o‘g‘li Sayid Muhammad Nosir tomonidan 1921-yilda yozilgan “Tahqiqoti Arki Buxoro” (“Buxoro Arki haqida tadqiqot”)⁷ asarida ham Buxoro Arkidagi masjidlar haqida muhim ma’lumotlar mavjud. Muso Saidjonovning “Buxoro shahridagi eski binolar”⁸ tadqiqoti ham mavzuni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.Bartoldning “Musulmon dunyosi” (Мусульманский мир) nomli asari diniy masalaga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu tadqiqotda Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi diniy siyosatning mohiyati ochib berilgan. Bundan tashqari,

² Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского, ввoдная статья и примечания Н.К.Норкулов. Редактор перевода: А.К.Арендс. Предисловие, редакция ввeдения и примечаний: А.С.Саъдуллаев. – Тошкент: Akademiya, 2009. – С. 330.

³ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). Тожики тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, З.Чориев. – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 122.

⁴ Бартольд В.В. Сочинения. Том. 2. Ч. 2. – Москва: Наука, 1964. – С. 472.

⁵ Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи (Сўзбоши муаллифи ва таржимон: Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 20.

⁶ Айний С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. – Тошкент: Нашриёти Ҳукумати Ҷумҳурии Туркистон, 1923; Ўша муаллиф. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: СССР халқлари Марказий давлат нашриёти, 1926. – Б. 148.

⁷ Сайид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. Таҳқиқоти Арки Бухоро. Бухоро Арки ҳақида тадқиқот (Ўзбек ва рус т.). Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи: Ғ.Каримов. – Тошкент: Tafakkur, 2009. – Б. 108.

⁸ Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари (Ўзбек ва рус т.). Нашрга тайёрловчи: Ҳ.Тўраев. – Тошкент: Рабочие документы IFAC, 2005. Выпуск 16. – Б. 54.

mazkur asarda Islom tarixi va uning Sharq xalqlari orasida tarqalishi, XX asrning 20-yillaridagi diniy ahvolga umumiy tasnif berib o'tilgan⁹.

Sovet davrida yaratilgan adabiyotlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, ularda XX asrning 20–50-yillaridagi kommunistik mafkura qoliplaridan kelib chiqqan holda fikr yuritilgan. Jumladan, IX–XIX asr boshlariga mansub Buxoro masjidlari arxitektura yodgorligi sifatida I.I.Umnyakov¹⁰, M.Y.Masson¹¹, Sh.E.Ratiya¹², Y.A.Davidovich¹³, V.L.Voronina¹⁴, G.A.Pugachenkova¹⁵ hamda V.A.Nilsenlar¹⁶ tomonidan o'rganildi. Biroq mustabid Sovet rejimi davridagi tarixchilar o'z asarlari orqali juda katta hajmdagi ashyoviy materiallarni ilmiy muomalaga kiritdilarki, bugungi zamonaviy tadqiqotlarni yaratishda bu materiallarga tanqidiy ko'z bilan yondashib, ularni qayta baholash va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning 60–80-yillarida P.P.Ivanov¹⁷, V.A.Shishkin¹⁸, I.A.Alimov¹⁹, M.S.Andreyev, O.D.Chexovich²⁰, K.S.Kryukov²¹, K.A.Pisarchik²², O.A.Suxareva²³, B.Kochnev²⁴, M.Bulatov²⁵, L.I.Rempel²⁶ va B.A.Kazakov²⁷ kabilarning tadqiqotlarida asosiy e'tibor Buxorodagi masjidlarining me'moriy xususiyatlari bilan birga ularning tarixi, jamiyat hayotida tutgan o'rini yoritishga qaratilgan.

Bu asarlarda Buxoro shahridagi masjidlarga faqat tarixiy yodgorlik sifatida e'tibor qaratilgan. Shunday qilib, Buxoro masjidlari tarixi mavzusida Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ishlar bugungi kun

⁹ Бартольд В.В. Мусульманский мир. – Петербург: Наука и школа, 1922. – С. 96.

¹⁰ Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии, средневековой Бухары // Сборник. Туркистанского Восточного Института в честь проф. Э.А.Шмидта. – Тошкент, 1923; O'sha muallif: Изучения культуры и быта Средней Азии в 1920–1927 гг. – Москва: Новый Восток, 1928. – №23-24.

¹¹ Массон М.Е. Соборная мечеть Тимура, известная под именем мечети Биби-Ханым / Среднеазиат. ком. по делам музеев и охране памятников старины, искусства и природы (Средазкомстарис). – Ташкент, 1926.

¹² Ратия Ш.Е. Мечеть Биби-Ханым в Самарканде: Исследование и опыт реставрации. – Москва: Государственное издательство архитектуры и градостроительства, 1950.

¹³ Давидович Е.А. Датировке мечети хаджа Зайнеддина в Бухаре. // Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. Выпуск 1. – Тошкент, 1950.

¹⁴ Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – Москва: Государственное издательство архитектуры и градостроительства, 1951.

¹⁵ Пугаченкова Г.А. Садово-Парково искусство Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов. // Гуманитарные науки. Книга 4. Выпуск XXIII. – Тошкент: Издательство САГУ, 1951.

¹⁶ Нильсен В.А. Монументальная архитектура Бухарского оазиса XI-XII вв. – Тошкент: Изд-во АН УзССР, 1956.

¹⁷ Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI-XVII вв. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1954.

¹⁸ Шишкин В.А. Фирман 1541 г. на портале большой соборной мечети Бухары // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 5. – Тошкент, 1964.

¹⁹ Алимов И.А. Аграрные преобразования в народных Советских республиках Хорезма и Бухары (1920–1924 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1970. – С. 82.

²⁰ Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк Бухары в конце XIX – начале XX вв. – Душанбе, 1972.

²¹ Крюков К.С., Лукинская В.А. Гузари мечети Бухары. // Архитектурное наследство. – Москва: Стройиздат, 1972.

²² Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда. – Душанбе: Дониш, 1975.

²³ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Наука, 1976.

²⁴ Кочнев Б.Д. Средневековые загородные культовые сооружения Средней Азии. – Тошкент: Фан, 1976.

²⁵ Булатов М. Мавзолей Саманидов – жемчужина архитектуры Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1976.

²⁶ Ремпель Л.И. Далёкое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. Бухарские записи. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1982.

²⁷ Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1987.

talablariga javob bera olmaydi. Buning ustiga, bu asarlarda masjidlar xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotida tutgan o'rni xususida hech narsa yoritilmagan.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, tarixiy va madaniy meros obyektlarni xolis va haqqoniy yoritish uchun qulay sharoit yuzaga keldi. Mustabid Sovet tuzumining yemirilishi, milliy ma'naviyatning tiklanishi natijasida O'zbekiston tarixining ajralmas qismi bo'lgan Buxoro masjidleri tarixini yoritishda sinfiy va partiyaviy yondashuvlar inkor qilinib, muammoni faqat ilmiy asosda chuqur o'rganishga kirishildi²⁸.

Mustaqillik yillarida S.I.Inoyatov²⁹, Q.K.Rajabov³⁰, N.B.Nemsova³¹, K.R.Rahimov³², L.Y.Mankovskaya³³, A.Salmonov³⁴, Y.G.Nekrasova³⁵, R.V.Almeyer³⁶ va H.To'rayevlar³⁷ tomonidan yaratilgan tadqiqot hamda monografiyalarda mavzu tarixining ayrim jihatleri, tarixshunosligi masalalari tadqiq etildi. Buxoro masjidleri tarixining turli tomonlari yoritilgan qator dissertatsiyalar M.A.Yusupova³⁸, R.Yusupov³⁹, M.Rasulov⁴⁰, N.Ismatova⁴¹ va A.Adilovlar⁴² tomonidan himoya qilindi.

Islom ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) tomonidan 2020-yil Buxoro Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi munosabati bilan poytaxt sifatida tanlangan Buxoro shahri madaniyati va uning islomiy merosini taqdim etishga qaratilgan konferensiya o'tkazildi⁴³.

Uchinchi guruhga xorijda chop etilgan asarlar va maqolalar kiradi. Xorijiy tadqiqotchilar o'z asarlarida diniy siyosat va dinga oid masalalarni xolis tadqiq

²⁸ Бухоро – Шарк дурдонаси. – Тошкент: Шарк, 1997; Ўзбекистон ислом обидалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002; Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Бухоро. Биринчи қисм. – Тошкент: Uzbekistan today, 2016.

²⁹ Иноятлов С. Соҳибқирон ва темурийлар назари тушган диёр. – Тошкент: Шарк, 2002.

³⁰ Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920–1924-yillar). – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 144.

³¹ Немцова Н.Б. Ханака Сайд Ад-Дина Бахарзи в Бухаре (К истории архитектурного комплекса). – Бухара: 2003.

³² Раззоқов Ғ., Раҳимов К., Раҳматуллаева Ф. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд еттинчи пир. – Тошкент: Splendid, 2012.

³³ Маньковская Л.Ю. Формообразование и типология зодчества Средней Азии IX – начало XX века. – Тошкент: Baktria press, 2014.

³⁴ Салмонов А. Ўзбекистонда Совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. – Тошкент: Тафаккур, 2015. – Б. 158.

³⁵ Некрасова Е.Г. Архитектурные памятники Бухарского оазиса. Чашма-и Аййуб. – Тошкент, 2019.

³⁶ Almeyer R. Maxmudov K. Qadimgi Mag'ok jumboqlari. –Buxoro: “Yoqub Dovud” bosmaxonasi, 2020.

³⁷ Тўраев Ҳ. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида жўйбор хожаларининг тутган ўрни: тар. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; То'rayev H. Buxoro toponimikasi. – Buxoro: Durdona, 2021; O'sha muallif. Buxoro tarixi yozma manbalari. – Buxoro: Durdona, 2023.

³⁸ Юсупова М. Бухарская школа зодчества XV–XVII вв. (особенности и динамика развития): дисс. ... канд. арх. наук. – Тошкент, 2000.

³⁹ Юсупов Р. Ўзбекистонда XX асрнинг 40-80 йилларида мусулмон диний ташкилотлари ва уламолар фаолияти (МДА маълумотлари асосида). тар. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 58.

⁴⁰ Расулов М.Ф. Юлдашева Д.У. Ўзбекистонда Совет ҳокимиятининг моддий-маданий ёдгорликларга бўлган муносабати (1917–1990 йй.): тар. фанл. фалс. докт. (PhD). дисс. ... автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 56.

⁴¹ Исмадова Н. Бухоро амирлиги вақф мулкчилиги тарихидан (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022.

⁴² Adilov A. Sovet davlatining O'zbekistonda amalga oshirgan diniy siyosati (1917–1990 yy.): tar. fanl. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – B. 60.

⁴³ Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни // Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий конференция материаллари. 2020 йил 27 апрел. – Бухоро, 2020.

etish imkoniyatidan mahrum bo'lgan Sovet tarixchilaridan farqli o'laroq, ushbu muammo bilan faol shug'ullanishgan. Xususan, Dominik Surdel va Janin Surdellar o'z izlanishlari davomida, jome masjidlari musulmon shaharlarining eng xarakterli jihati bo'lib, ularning mavjudligi shaharlarning mavqeyi, kengayishi, demografik o'sishiga bevosita ta'sir qilganini alohida qayd qilib o'tishgan⁴⁴.

So'nggi yillarda MDH davlatlarida⁴⁵ masjidlar tarixiy yodgorliklar va madaniy-ma'naviy meros sifatida keng miqyosda o'rganila boshlandi. Bu davrdan boshlab e'lon qilinayotgan tadqiqotlarda masjidlarning me'moriy xususiyatlari bilan birga ularning ba'zi jihatlariga e'tibor qaratilmoqda. Shu bois A.Kappeler⁴⁶, M.Fedotkin⁴⁷, Y.Ro'i⁴⁸, F.Allen⁴⁹, A.Taksanov⁵⁰, V.Ponomaryov⁵¹, P.Sartori⁵², R.Krevs⁵³, Alex Marshal⁵⁴, J.Rasanayagam⁵⁵, D.Arapov⁵⁶, H.Olsson⁵⁷, R.Sheikh⁵⁸ va N.Piansiolalarning⁵⁹ tadqiqotlarida Markaziy Osiyo hududidagi din bilan bog'liq vaziyat, hukumatning diniy siyosati o'z aksini topdi.

Masjidlar Islom dinining hamda musulmon mamlakatlar madaniy-ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida yevropalik tadqiqotchilar⁶⁰ tomonidan XX asrning boshlaridan o'rganila boshlandi. Bugungi kunga qadar masjidlarning

⁴⁴ Сурдель Д., Сурдель Ж. Цивилизация классического ислама. – Екатеринбург, 2006. – С. 382.

⁴⁵ Каримов М. Строительная культура Мавераннахр IX начала XIII вв. (на примере монументальных сооружений Таджикистана): автореф. дисс. ... канд. арх. наук. – Москва, 2009; Бейшенбаев М. Архитектура мечетей Кыргызстана: автореф. дисс. ... канд. арх. наук. – Душанбе, 2015; Хаитова С.Р. Архитектурно-планировочное формирование мечетей Таджикистана (вопросы генезиса, классификации и художественного образа): автореф. дисс. ... канд. арх. наук. – Душанбе, 2018; Гарипова Р. Аккульская мечеть в постсоветском Казахстане: музейный артефакт или священное место // Вестник (Хабаршы). – №2(131) / 2020.

⁴⁶ Каппелер А. Россия – многонациональная империя; возникновение, история, распад. – Москва: Гаугн-Пресс, 2000. – С. 226.

⁴⁷ Федоткин М.Ю. Исламская пропаганда среди населения мусульманских регионов СССР (1979–1991 гг.): Исторический анализ: автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Москва, 2000. – С. 26.

⁴⁸ Ro'i Y. Islam in the Soviet Union. From the Second World War to Gorbachev. – London: Hurst, 2000. – P. 764.

⁴⁹ Frank Allen J. Muslim Religious Institution in Imperial Russia. – Leiden: Boston, 2001. – P. 329.

⁵⁰ Таксанов А. Интеграция в странах Центральной Азии факторы “за” и “против”. Этнические, религиозные и территориальные аспекты // Центральная Азия и Кавказ. – Швеция, 2001. – №1 (13). – С. 157.

⁵¹ Пономарёв В. Ислам в системе государственной политики Узбекистана и Туркменистана. // Россия и мусульманский мир – Москва, 2002. – С. 172.

⁵² Paolo Sartori. Altro Che seta Corano e progresso in Turkestan (1965–1917). – Prato, 2003. – P. 154.

⁵³ Crews R. Empire and the Confessional State: Islam and Religious Politics in Nineteenth Russia // American; Crews D. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. – Cambridge-London, 2006. – P. 480.

⁵⁴ Alex Marshall. The Russian General Staff and Asia. –London: Routledge, 2006. – P. 274.

⁵⁵ Rasanayagam J. Islam in Post-Soviet Uzbekistan: The Morality of Experience. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 109.

⁵⁶ Арапов Д.Ю. Ислам и Советское государство (1944–1990). Документы. – Москва: Марджани, 2011. – С. 527.

⁵⁷ Ohlsson H. Islam and Secular State in Uzbekistan: State Control of Religion and its Implications for the Understanding of Secularity // Cahiers d'Asie Centrale. – Paris, 2011. – №19-20. – pp. 485–493.

⁵⁸ Sheikh R. Religious Education in Uzbekistan under Soviet Imperialism. A Secular Based Approach // International Journal of Education (IJE). Vol. 3. – No.3. September 2015. – pp. 37–43.

⁵⁹ Pianciola, N. and Sartori, P. (eds.) (2013) Islam, Society and States across the Qazaq Steppe (18th – early 20th Centuries). – Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften; Sartori, P. (2016) Visions of Justice: Sharia and Cultural Change in Russian Central Asia. – Leiden; Boston: Brill. – 414 p.

⁶⁰ Papadopulo A. Islam and Muslim Art. – London: Thames & Hudson, 1980; Ettinghausen R., Grabar O. The Art and Architecture of Islam 650–1250. / The Pelican History of Art. – London: Penguin Books, 1992; Onkal A., Bozkurt N., Eyice S., Sener M., Cami: I. Dini ve sosyokulturel tarihi. II. Mimari tarihi. III. Diniy hukumler // Türkiye Diyanet vakfi Islam ansiklopedisi. 7-cilt. Ca'far as-Sadik. Ciltcilik. – Istanbul, 1993; Muhammet Savaş Kafkasyalı. Orta Asya'da Islam. Cilt II. – Ankara: Türkistan, 2012.

jamiyat hayotida tutgan o'rnini va, ayniqsa, me'morchilik an'analari tarixiga bag'ishlangan ko'plab ishlar nashr qilingan.

Mavzu tarixshunosligining tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tarixiy tadqiqotlarda Buxoro masjidlarining ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rnini alohida tadqiqot doirasida o'rganilmagan. Muammoning bu jihatlari mazkur mavzuning alohida obyekt sifatida tanlab olinishiga imkon yaratdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti "Areologiya va Buxoro tarixi" kafedrasining "Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Buxoroda 1920-yildan to 1991-yilgacha bo'lgan davr mobaynidagi masjidlar faoliyatini birlamchi manbalar asosida ilmiy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Buxoro Xalq Sovet Respublikasida masjidlar faoliyatidagi o'zgarishlarni yoritish;
- masjid vaqf mulklarining ahvoli, tugatilishi va masjidlar faoliyatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish;
- Sovet hukumatining masjidlar munosabatining mohiyatini ochib berish;
- O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining tashkil topishi va norasmiy masjidlar qarshi kurashiga qaratilgan siyosatning mohiyatini ochib berish;
- Sovet hukumatining islom diniga qarshi olib borgan siyosatining milliy ma'naviy sohada oqibatlarini ochib berish;
- Sovet hukumatining norasmiy masjidlar qarshi kurashish sabablarini ochib berish va mavzuga oid taklif hamda tavsiyalarni taqdim etish;

Tadqiqotning obyektini Buxorodagi 1920-yildan to 1991-yilgacha bo'lgan masjidlar faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti mazkur davrda Buxoro masjidlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar va yuz bergan muhim tarixiy jarayonlarni tarixiy tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari sifatida ishda tarixiylik tamoyili, tizimli yondashuv, mantiqiylik, xronologik, fanlararo yondashuv va qiyosiy tahlil hamda muammoga sivilizatsion yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: BXSr Maorif nozirligi tomonidan tashkil etilgan Tarix va osori atiqalari anjumani faoliyati doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida Buxoro shahrining tarixiy-madaniy merosi, xususan, tarixiy yodgorliklar hamda diniy inshootlarni o'rganish va hujjatlashtirish jarayoni tahlil qilinib, tadqiqot natijasida anjuman a'zosi Muso Saidjonov tomonidan Buxoro masjidlari bo'yicha dastlabki katalog tuzilganligi aniqlanib, mazkur katalogda diniy va dunyoviy me'morchilik obidalari tizimli ravishda qayd etilgani hamda bu ish Buxoroning me'moriy merosini ilmiy asosda ro'yxatga olish

va saqlash yoʻlidagi dastlabki ilmiy urinishlardan biri boʻlganligi manbalar asosida dalillangan;

BXSR Xalq maorifi nozirligi huzurida “Avqof” nomli vaqf boshqarmasi tashkil etilgani, ushbu boshqarma diniy hamda madaniy-maʼrifiy vaqf mulklarini roʻyxatga olish, boshqarish va ulardan samarali foydalanishni taʼminlashga masʼul boʻlganligi, shuningdek, vaqf mulklari tarkibi ikki asosiy guruh: diniy vaqflar masjidlar, mozorlar, maqbaralar, xonaqohlar hamda madaniy-maʼrifiy vaqflar madrasa, maktab, kasalxona, hovuz, koʻprik va yoʻl kabi inshootlarni oʻz ichiga olganligi bilan bogʻliq maʼlumotlar ochiqqlangan;

Sovet hukumatining din borasidagi notoʻgʻri siyosati tufayli Buxoroda ham koʻplab masjidlar faoliyati tugatilib, ularning katta qismi buzib yuborilganligi, jumladan, Buxoro shahridagi Mir Doʻstim masjidi klubga aylantirilganligi, Hazrati Mir qishlogʻidagi uch masjid gʻishtlarining klub va qizil choyxona qurishga ishlatilganligi, shahar markazidagi uch yuz yillik tarixga ega Xudoyor otaliq masjidi yopilib, mol-mulki sotilib, masjidning oʻzi omborxona sifatida ishlatilganligi, keyinchalik mazkur masjid otxonaga aylantirilganligi, Masjidi Kalon gʻalla omboriga, Mir Ibrohim masjidi shirkatchilar tasarrufiga, Mavlono Sharif masjidi esa, shahar muhandislari idorasi ixtiyoriga, Arabon masjidining tahoratxonasi novvoyxona shirkatiga topshirilganligi bilan bogʻliq maʼlumotlar aniqlangan;

Sovet hukumati tomonidan olib borilgan sekulyarizatsiya va ateistik siyosat islomiy muassasalarning, ayniqsa, masjidning jamiyat hayotidagi oʻrnini susaytirishga qaratilgan izchil va tizimli choralar bilan kechganligi, masjidlar diniy markaz sifatida emas, balki mafkura va nazorat ostidagi obyektga aylantirilganligi va ularning faoliyati cheklab qoʻyilganligi, shunga qaramay masjidlar toʻliq barham topmaganligi, aksincha, ular kuchli bosim sharoitida ham moslashuvchanligi, mahalliy maʼmurlarning fidoyiligi va diniy anʼanalarining ichki kuchi tufayli faoliyatini davom ettirganligi aniq maʼlumotlar asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Tarixiy manba va adabiyotlarda berilgan maʼlumotlar asosida Buxoroda Sovet hokimiyati davrida masjidlar faoliyati va ular bilan bogʻliq muammolar tizimli izohlangan. Buxoroda 1920-yildan to 1991-yilgacha mavjud boʻlgan masjidlar roʻyxati, ularning bugungi holati va ahamiyati tarixiy maʼlumotlar tahlili asosida qayd etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fanida tan olingan ilmiy yondashuv va usullarning qoʻllanilgani, ilmiy adabiyotlar va tarixiy manbalardan foydalanilgani, xususan, arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari hamda turli esdalik va xotiralarning ilmiy muomalaga kiritilganligi, shuningdek, tadqiqotdagi xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* shundan iboratki, taqdim etilgan maʼlumotlar Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim oʻrin egallagan Islom meʼmorchiligi tarixini chuqurroq oʻrganishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari 1920-yildan to hozirgi kunga qadar Buxorodagi diniy munosabatlar, diniy ijtimoiy muassasalar va ularning xo‘jaliklari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirish hamda yangi nazariy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, dissertatsiyada keltirilgan ma‘lumotlardan oliy o‘quv yurtlarida tarix, islom tarixi, Turkiston me‘morchiligi, tarixshunoslik, o‘lkashunoslik fanlari bo‘yicha maxsus kurslar o‘qitishda, yangi avlod darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro masjidlari tarixi (1920–1991) mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

XX asr boshlarida Sovet hokimiyatining ateistik siyosati natijasida buzib tashlangan masjidlar Buxoroning tarixiy-madaniy merosiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatganligi qayd etilib, Muso Saidjonov tomonidan Buxoro masjidlari bo‘yicha tuzilgan katalog ushbu masjidlarning joylashgan o‘rni hamda ularning nomlarini aniqlash imkonini berganligi haqidagi ma‘lumotlardan “Ijtimoiy sheriklik doirasida qabristonlar, muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish, ma‘naviy-ma‘rifiy, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish ustidan jamoatchilik nazoratini takomillashtirish” nomli Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash granti doirasida amalga oshirilgan targ‘ibot materiallarini (risola, maqolalar to‘plami) tayyorlashda foydalanilgan (*“Buxoro merosi” ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 23-apreldagi №7-sonli ma‘lumotnomasi*). Natijada olingan ilmiy-nazariy natijalar Buxorodagi masjidlarning o‘rnini aniqlash, ularning tarixiy qiyofasini tiklash, shuningdek, Buxoro me‘moriy obidalariga doir bilimlarning boyishiga xizmat qilgan;

BXSR Xalq maorifi nozirligi huzurida faoliyat yuritgan “Avqof” nomli vaqf boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, diniy-ma‘rifiy muassasalar orasida masjidlarga mulkni vaqf etish yetakchi o‘rinni egallaganligi, ta‘sis etilgan vaqflarning qariyb 60 foizi masjidlar ulushiga to‘g‘ri kelganligi, shuningdek, O‘zbekiston SSRda amalga oshirilgan yer-suv islohoti natijasida vaqf mulklarining tugatilganligi, buning oqibatida masjidlar moddiy manbadan mahrum bo‘lib, ularning ko‘pchiligi o‘z faoliyatini to‘xtatganligi bilan bog‘liq ma‘lumotlardan Mir Arab oliy madrasasining “Islom tarixi” fanini o‘qitishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Musulmonlari idorasining 2023-yil 6-iyundagi №1678-ma‘lumotnomasi*). Natijada mazkur ma‘lumotlar madrasada o‘qitish sifatini oshirish hamda talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini oshirishga xizmat qilgan;

Sovet hukumatining din borasidagi noto‘g‘ri siyosati tufayli Buxoroda ham ko‘plab masjidlar faoliyati tugatilib, ularning katta qismi buzib yuborilganligi, Buxoro shahridagi Mir Do‘stim masjidi klubga aylantirilganligi, Hazrati Mir qishlog‘idagi uch masjid g‘ishtlarining klub va qizil choyxona qurishga ishlatilganligi, shahar markazidagi uch yuz yillik tarixga ega Xudoyor otaliq masjidi yopilib, mol-mulkining sotilganligi, masjidning o‘zi omborxona sifatida ishlatilganligi, keyinchalik mazkur masjid otxonaga aylantirilganligi, Masjidi

Kalon g'alla omboriga aylantirilganligi, Qo'sh madrasada paxta saqlanganligi, Abdulazizxon masjidining o'g'it saqlanadigan omborxonaga aylantirganligi haqidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqqimot" ko'rsatuvini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2024-yil 12-yanvardagi 06-31-63-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, ushbu ma'lumotlar teletomoshabinlarning yurtimiz me'moriy yodgorliklari haqidagi tasavvurlarining kengayishiga xizmat qilgan.

Sovet hukumati tomonidan olib borilgan sekulyarizatsiya va ateistik siyosat islomiy muassasalarning, ayniqsa, masjidlarining jamiyat hayotidagi o'rnini susaytirishga qaratilgan izchil va tizimli choralar bilan kechganligi, masjidlar diniy markaz sifatida emas, balki mafkura va nazorat ostidagi obyektga aylantirilganligi haqidagi ma'lumotlaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Ochiq dars" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanildi (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2024-yil 12-yanvardagi 06-31-63-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, ushbu ma'lumotlar teletomoshabinlarda o'zlikni anglash, moddiy va ma'naviy merosimiz bilan bog'liq bilimlarning oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 tasi xalqaro, 11 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish e'lon qilingan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 4 tasi xorij jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, uning o'rganilish darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Buxoro Xalq Sovet Respublikasida Sovet Rossiyasining masjidlarga nisbatan olib borgan siyosati, vaqf mulklarining tugatilishi va uning oqibatlari**" deb nomlangan. Mazkur bobda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida sovet hokimiyatining diniy muassasalarga, xususan masjidlarga nisbatan olib borgan siyosati, vaqf mulklarining tugatilishi jarayoni hamda uning masjidlar faoliyati va jamiyatning diniy hayotiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritib beriladi.

Sayid Mansur Olimiyning yozishicha, Buxoro amiri Sayid Olimxon (1910–1920) hukmronligining so‘nggi yillarida Buxoro shahrida 360 ta masjid faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 70 tasi jome masjidi bo‘lgan, bu davrda ruhoniylar son jihatidan juda ko‘p bo‘lib, ular uyushqoqlik bilan mustahkam tabaqani tashkil etgan va ular amir hamda uning hukumati ustidan sezilarli ta’sirga ega bo‘lishgan⁶¹.

Fayzulla Xo‘jayev (1896-1938) boshchiligidagi BXSР hukumati amirlik ag‘darilgan dastlabki kunlardan boshlab, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy hayotini yaxshilash borasida islohot va tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. Shuni ham aytish kerakki, Sovet hukumatining diniy siyosati Buxoro Xalq Respublikasi (BXSР)ga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. BXSР hukumati o‘zining siyosiy, ijtimoiy va madaniy qarashlarini Sovet Rossiyasining qarashlariga moslashtirishga majbur bo‘lgan. Sovet hukumati bu davrda ateistik mafkurani ilgari surgan bo‘lib, diniy tashkilotlarni nazorat ostiga olish, diniy ta’limotlarni yo‘q qilish va dinning jamiyatdagi rolini kamaytirishni maqsad qilgan. Sovet hukumati BXSРni ana shu yo‘ldan yurishga majbur qilgan. Lekin yangi hukumat rahbarlari imkon boricha mustaqil qaror qabul qilib, markaz chizib bergan yo‘ldan borishga harakat qilishmaydi.

Buxoro Markaziy Inqilobiy Ijroiya Qo‘mitasi raisi *Abdulqodir Muhiddinov* va kotib *Sobir Yusupovlar* imzosi bilan 1920-yil 29-sentyabrda e’lon qilingan 13-raqamli buyruqda: “Buxoro Jumhuriyatining ichidagi hamma hukumat mahkamalari va boshliqlari eski idoralar va harbiy dastalarga amr qilinadurki, mamlakat ichinda bo‘lg‘on *masjidlarning* hech birini o‘zlarining ishlari va kishilari bilan ishg‘ol qilmasinlar. Kimki shu buyruqning xilofinda masjidlarni ishg‘ol qilsa, qattiq jazo ko‘radur” deb qayd qilingan. Buyruqda diniy muassasalarni noqonuniy egallab olganlarga 48 soat (ikki sutka) muhlat qo‘yilib, agar kimki unga rioya qilmasa, hukumat unga qarshi qat’iy chora ko‘rishni ta’kidlagan⁶². Maqsad muqaddas joylarni (masjid va avliyolar), ilmgohlarni (madrasalar) tasodifiy kishilar va kelgindilardan xalos etish bo‘lgan.

BXSРda sovet hokimiyatining diniy soha ustidan nazoratni kuchaytirish siyosati qonuniy asosda ham rasmiylashtiriladi. Bu borada muhim hujjatlardan biri Buxoro Xalq Sovet Respublikasining qonun chiqaruvchi organi bo‘lgan *Markaziy Inqilobiy Qo‘mitaning* 1920-yil 24-oktyabrdagi 34-raqamli qarori hisoblanadi. Mazkur qaror, masjidlar faoliyatini tartibga solish va ularning moddiy bazasi ustidan markaziy boshqaruvni yo‘lga qo‘yish maqsadida qabul qilingan⁶³.

⁶¹ *Саййид Мансур Олимий*. Бухоро – Туркистон бешиги. Форс тилидан таржима, таржимон номидан сўзбоши ва айрим изохлар муаллифи Х.Тўраев. – Бухоро: “Бухоро”, 2004. – Б. 13.

⁶² *Ҳайитов Ш, Бадриддинов, К Рахмонов*. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920-1924). – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005. – Б. 15-16.

⁶³ *Баҳодирова С*. Бухоро Халқ Совет Республикасида ислохотлар ва уларнинг ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 97.

Qarorda birinchi navbatda masjidlarni ta'mirlash ishlari hamda imom va muazzinlarning ish haqlari uchun mablag'lar ajratish masalasi ko'zda tutilgan. Bu mablag'lar davlat tasarrufidagi maxsus fondan ajratilishi belgilanadi. Ikkinchidan, masjidlarga tegishli barcha binolar va ularning jihozlari *Avqof* boshqarmasi (Vaqflar boshqarmasi) ixtiyoriga o'tkaziladi, bu orqali sovet hokimiyati diniy obyektlar ustidan bevosita nazorat o'rnatadi.

1921-yilning avgust oyiga kelib Buxoro hududida 208 ta masjid va 215 ta madrasa faoliyat yuritayotgani, ularni qo'llab-quvvatlovchi 200 ta vaqf birligi rasmiy ro'yxatga olingani kuzatiladi. Bu vaqflarning moddiy bazasi sezilarli darajada boy bo'lgan, ular tarkibiga 2000-3000 tanob (yoki 500–700 desyatina) yer maydoni, 57 ta ombor (saroy), 1414 ta do'kon, 23 ta bozor, 10 ta hammom, 18 ta tegirmon va 133 ta uy kirgan. Bunday mulkiy asos har yili o'rtacha 1 million oltin rubl miqdorida daromad keltirgan⁶⁴.

Mavjud og'ir iqtisodiy sharoitda ham Buxoro tarixiy merosini saqlab qolish va ilmiy o'rganish masalalari kun tartibidan tushmaydi. 1921 yil iyul oyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif vazirligi tashabbusi bilan *Tarix va osori atiqqa anjumani* tuziladi. Mazkur anjumanning asosiy maqsadi Buxoro tarixini, madaniy merosini, xususan tarixiy yodgorliklar va diniy inshootlarni o'rganish va hujjatlashtirishdan iborat bo'lgan. Fitrat, Sharifjon Maxdum, Mirzo Salimbek va Muso Saidjonov ushbu anjuman a'zolari sifatida faoliyat yuritganlar. Anjuman doirasidagi ilmiy ishlar natijasida *Muso Saidjonov* tomonidan Buxoro masjidlari bo'yicha dastlabki katalog tuzildi. Bu katalog diniy me'morchilik namunalarini tizimli ravishda qayd etish va ularni saqlash yo'lidagi ilk urinishlardan biri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi⁶⁵.

BXSRda iqtisodiy tanglik va siyosiy beqarorlik sharoitida masjidlar va boshqa diniy inshootlarning huquqiy maqomi va moddiy ta'minoti bilan bog'liq muammolar dolzarbligicha qolavergan. Ayniqsa, vaqf mulklarining huquqiy maqomini aniqlashtirish va ularni davlat tizimiga moslashtirish zarurati yuzaga keladi. Biroq Respublikaning ilk yillarida bu yo'nalishdagi ishlar yetarlicha natija bermaydi. Vaqf masalasini tizimli hal etish uchun alohida yondashuv va kompleks yuridik hujjat zarur bo'ladi. Shu maqsadda 1922-yil 20-iyunda BXSR Maorif Xalq noziri Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan *75-sonli buyrug'iga* asosan "*Vaqf tartibga solish to'g'risida*"gi maxsus loyiha ishlab chiqiladi⁶⁶. Bu xususda A.Ikromov ta'kidlaganidek, - diniy va vaqf yerlari haqidagi masalani ikkinchi navbatda hal qilish kerak edi⁶⁷.

1923-yil 21-fevralda Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi tomonidan masjidlar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan muhim qaror qabul qilingan. Mazkur qarorga ko'ra, faqatgina masjidlarga tegishli bo'lgan vaqf mulklari o'z holicha, ya'ni diniy

⁶⁴ Алимов И. Бухоро республикасидаги вақф мулклари тарихидан//Илмий хабарнома, АДУ, 2009, № 3.–Б. 59.

⁶⁵ Qarang: *Абдурауф Фитрат*. Туркистонда руслар. Шарқ юлдузи, 1992, №4, В. 184.

⁶⁶ Бухоро ахбори, № 88.1922 yil 29 iyun (arab imlosida).

⁶⁷ *Икромов А.* Избранные труды: В 3-х томах. –Ташкент: 1972. –Т.1. –С. 168.

jamoalarning tasarrufida saqlab qolingani. Biroq, qolgan barcha turdagi vaqf mulklari (shu jumladan, savdo do'konlari, uy-joylar, ishlab chiqarish inshootlari va boshqalar) Vaqf boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazilgan.

Ayrim masjid va diniy inshootlarning ta'miri katta moliyaviy mablag' talab qilgani bois, ularni saqlab qolish o'rniga butunlay buzib tashlash holatlari ham kuzatilgan. Bunga Buxoro shahridagi yirik diniy markazlardan biri hisoblangan Poyanda jome masjidi misol bo'la oladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Ark saroyining janubida joylashgan ushbu masjid Masjidi Kalondan keyin shahardagi muhim jome masjidlaridan biri bo'lgan. Biroq 1920-yillarga kelib uning holati yomonlashgani sababli shahar ijroiya qo'mitasi uni ta'mirlash o'rniga buzib tashlab, o'rnida bog'cha barpo etish to'g'risida qaror qabul qilgan va masjid tugatilgan⁶⁸. Shunga o'xshash holat Bolohovuz masjidining janubida joylashgan, Ashtarxoniylar davriga mansub Shodibiy masjidida ham kuzatiladi. Ikki qavatli ushbu masjid ham 1920-yillarga kelib xarob holga kelgani bois, 1923-yilda Buxoro Vaqf sho'basini qarori bilan buzib tashlangan⁶⁹.

Masjid vaqflarini boshqarish bo'yicha vakolat va vazifalar Xalq Komissarlari Soveti tomonidan 1923-yil 4-martda tasdiqlangan, Turkiston MIKning 1922-yil 28-dekabrda "Vaqf to'g'risida"gi dekretini tatbiq etish tartibi va usuli haqidagi Nizomda aniq belgilab qo'yiladi. Nizomning birinchi moddasida shunday qayd etilgan: "Turkiston MIKning 1922-yil 28-dekabrda dekretida ko'rsatilgan diniy va madaniy-ma'rifiy, xayriya tashkilotlarining barcha vaqf mulklari bevosita Bosh vaqf boshqarmasi ixtiyoriga o'tadi va idora qilinadi"⁷⁰.

1924-yil boshidan boshlab Bosh vaqf boshqarmasi diniy vaqflar faoliyatini yanada cheklash choralari kuchaytiradi. Jumladan, 1924-yil 9-yanvarda qabul qilingan qarorga ko'ra, masjid vaqflaridan olinadigan daromadning 10 foizi madaniy-ma'rifiy vaqflar fondiga ajratilishi belgilanadi⁷¹.

O'zbekiston SSRda tashkil etilgan vaqf idoralarining eng muhim vazifalaridan biri barcha vaqf mulklarini to'liq hisobga olishdan iborat edi. Bu jarayon murakkab va mashaqqatli bo'lishiga qaramay, Bosh vaqf boshqarmasi 1925-yil sentyabr oyi oxirlariga kelib savdo nuqtalari hamda sanoat korxonalarini ro'yxatga olish ishlarini yakunlaydi⁷².

O'zbekiston Xalq Komissarlar Soveti Ijroiya byuroning ko'rsatmasi bilan 1926-yil 22-sentyabrda shahardagi vaqf mulklarini mahalliy xo'jalik bo'limlari ixtiyoriga sekin-asta topshirish to'g'risida qaror qabul qilinadi⁷³. Mazkur islohotlar diniy vaqf mulklarini tugatish jarayonida muhim bosqich bo'ldi. Xususan, masjid va boshqa diniy muassasalarga tegishli bo'lgan, savdo-sanoat ahamiyatiga ega vaqf

⁶⁸ Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари. Нашрга тайёрловчи Х. Тўраев. – Тошкент: 2005. – Б. 23.

⁶⁹ O'sha manba. – Б. 33.

⁷⁰ O'zMA. 17-fond, 1-ro'yxat, 2272 – ish. 4-varaq.

⁷¹ O'zMA. 34-fond, 1-ro'yxat, 2725 – ish. 28-varaq.

⁷² Якубов З.И. Религиозные институты в Узбекистане (1917–1930 гг.). – Ташкент: 2003. – Б. 128.

⁷³ O'zMA. 94-fond, 1-ro'yxat, 314 – ish. 174-varaq

mulklarini tugatishning yakuniy bosqichi O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1928-yil 22-sentyabrdagi qarori bilan amalga oshirildi. Ushbu qarorga ko‘ra, vaqf mulklari mahalliy sovetlarning mulki sifatida e‘tirof etiladi. Qarorda, shuningdek, O‘zbekiston SSR Maorif xalq komissariati tasarrufiga vaqf mulklarini o‘tkazish haqidagi 1927-yil 15-avgustdagi 99-raqamli qaror o‘zgartirilib, diniy vaqf mulklari ham umumiy sovet mulki hisoblanishi qat’iy belgilab qo‘yiladi⁷⁴.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sovet hukumatining ateistik siyosati va uning Buxorodagi masjidlariga ta’siri**” deb nomlanib, ushbu bobda sovet hokimiyati tomonidan yuritilgan ateistik siyosatning mazmun-mohiyati, diniy muassasalarga nisbatan olib borilgan cheklovlar, masjidlarning yopilishi va ularning xo‘jalik hamda ma’muriy maqsadlarda qayta foydalanilishi, Buxoro hududidagi masjidlar faoliyatining qisqarishi va diniy hayotdagi o‘zgarishlar kabi masalalar tahlil etilgan.

XX asrning birinchi choragida O‘zbekiston SSSR tarkibiga kirgandan so‘ng, dinga, xususan, Islom diniga bo‘lgan munosabat o‘zgarib ketdi. 1925-yil O‘zKP (b)ning I syezdi “Dinga qarshi targ‘ibot va turmush xurofotlariga qarshi kurash to‘g‘risida” rezolyusiyani qabul qiladi. 1927-yilda O‘zKP (b)ning III syezdi Din va dinga munosabat to‘g‘risida yana ikkita rezolyusiyani qabul qiladi⁷⁵. Bu qabul qilingan rezolyusiyalar kelgusida dinga bo‘lgan munosabatni belgilab berdi.

O‘zbekiston SSR 1925-yildan boshlab rasman sobiq Ittifoq tarkibiga qo‘shilgach, respublikada dinlarga, xususan Islom diniga nisbatan davlat siyosati keskin o‘zgarishga uchradi. Ayniqsa, 1927-yillardan e‘tiboran Turkiston hududida haqiqiy ma’noda masjidlariga hujum boshlanadi va ularning deyarli barchasi ta’qib ostiga olinadi⁷⁶.

O‘zbekiston kompartiyasining rezolyusiyasidan keyin dinga qarshi tashviqotlar boshlanadi. Sovet hukumatining yangi dohiysi I.V. Stalinning 1928-yil 3-martdagi quloqlarga qarshi qaratilgan nutqi mamlakatda *diniy tashkilot* va *muassasalarga* bo‘ladigan munosabatni belgilab berdi. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1928-yil sentyabrda “*Vaqf mulklarini bekor qilish*” to‘g‘risidagi va 1929-yil fevraldagi “*O‘zbekiston SSR hududidagi barcha eski usul maktablari, diniy tashkilotlar faoliyatiga ruxsat bermaslik*” to‘g‘risidagi qarorlarning chiqarilishi bilan O‘zbekistondagi, jumladan, Buxoro shahridagi deyarli barcha masjidlar yopilib, binolari boshqa maqsadlarda foydalanishga topshirib yuboriladi. Mazkur davr tadqiqotchilaridan A.Xolidning yozishicha, 1927-1929-yillarda O‘zbekiston SSR jumhuriyatida sovetlar olib

⁷⁴ O‘zMA. 94-fond, 1-ro‘yxat, 319 – ish, 15-varaq.

⁷⁵ Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати (1917– 1960 йиллар). – Тошкент: Тафаккур, 2015. – Б. 58

⁷⁶ Султонов Ў. Тошкент масжидлари тарихи. –Тошкент: “Янги аср авлоди” 2010. – Б. 114.

borgan siyosatning asosiy yo‘nalishi va maqsadi bevosita masjid-madrasalar, eski usul maktablar va qozixonalar faoliyatini yopishga qaratilganligini ta’kidlaydi⁷⁷.

Yuqorida qayd etilganidek, ayrim diniy inshootlar, jumladan masjid va ziyoratgohlarning buzilishi 1927-yilgacha ham uchrab turgan. Biroq masjidlar va boshqa diniy markazlarni yopishga qaratilgan tashabbuslarning qachondan boshlab izchil davlat siyosatiga aylangani masalasi murakkab hisoblanadi. Manbalar tahliliga ko‘ra, bu jarayon ayniqsa 1928-yil yozidan boshlab Buxoro hududida keng ko‘lamda va jadallik bilan amalga oshirilgan⁷⁸. Birlashgan Davlat Siyosiy Boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1928-yil 16-sentyabrda Buxoro partiya maktabi tinglovchilari Mir Do‘stim masjidida yig‘ilish o‘tkazib, namozxonlarning masjidga kirishiga to‘sqinlik qilgan va imomni mehrobdan haydab yuborgan. Yig‘ilishda masjidni klubga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilinib, bino yopib qo‘yilgan. Shu davrda Buxoro atrofidagi Hazrati Mir qishlog‘ida faoliyati to‘xtatilgan uch masjid g‘ishtlaridan klub va “qizil choyxona” qurish rejalashtirilgan. Shuningdek, Buxoro shahridagi uch yuz yillik tarixga ega Xudoyor Otaliq masjidi 1928-yilda mahalla soveti tashabbusi bilan yopilib, uning mol-mulki sotilgan va tushgan mablag‘ “qizil o‘quv-xona” qurilishiga yo‘naltirilgan. Keyinchalik esa masjid binosi omborxona, 1929-yildan boshlab esa BDSB tasarrufida xo‘jalik maqsadlarida foydalanilgan. Bu kabi holatlar Buxoro hududining boshqa joylarida ham kuzatilgan⁷⁹.

1930-yillarda dinga va ruhoniylarga qarshi ochiqdan-ochiq sovuq urush e’lon qilinadi. Buning uchun maxsus “*Kurashchan xudosizlar*” tashkiloti tuzilib, uning bo‘linmalari barcha korxona va muassasalarda tashkil etildi. “*Kurashchan xudosizlar*” ittifoqi umumiy shubhalanish vaziyatini kuchaytirishda katta rol o‘ynadi. Jumladan, Buxoro me’moriy yodgorliklaridan Ko‘kaldosh madrasasi va Devonbegi xonaqosida Buxoro shahar muzeyi bo‘limi sifatida faoliyat yuritgan. Masjidi Kalondan esa g‘alla ombori sifatida foydalanilgan, Qo‘shmadrasada paxta saqlangan. Bahovuddin Naqshband ziyoratgohidagi Abdulazizxon masjidida mineral o‘g‘itlar saqlanadigan omborxonasiga aylantirishgan⁸⁰.

Sovet hokimiyati Buxorodagi boshqa masjidlarni ham o‘zining diniy vazifasidan mahrum qilib, turli xo‘jalik va maishiy ehtiyojlarga moslashtirgan. Xususan, *Mir Ibrohim* masjidi shirkatchilar tasarrufiga, *Mavlono Sharif* masjidi esa shahar muhandislari idorasi ixtiyoriga berilgan. *Arabon* masjidining tahoratxonasi joyi novvoyxona shirkatiga topshirilgan bo‘lsa, *Kokilai Xurd* masjidi tijorat do‘koniga aylantirilgan. 1939-yil aprel oyida Uzkomstaris faoliyati yuzasidan o‘tkazilgan tekshiruv natijasida esa uning ixtiyoriga berilgan masjidlardan mutlaqo

⁷⁷ Khalid A. Backwardness and the Quest for Civilization: Early Soviet Central Asia in Comparative Perspective // Slavic Review. Vold. 65.No 2 (Summer, 2006). –P. 243.

⁷⁸ Соколов В. Взаимодействие органов госбезопасности с государством и обществом орловского региона в 1918-1934 гг. диссертация ... кан. ист. наук. – Орёл: 2025. –С. 28.

⁷⁹ Adib Xolid. O‘zbekiston tavalludi (Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob). –Toshkent: Akademyanashr, 2024. – B. 349.

⁸⁰ Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1993 йил. 4 июнь.

